Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Dots. **F. A. Rahmatova**

Magistr **Qudratova(Ochilova) Laziza Shuhrat qizi**

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20302860

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar, xususan, raqamli texnologiyalar, media savodxonlik, axborotni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar va ularni milliy pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlar taklif etiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются передовые зарубежные подходы к формированию навыков работы с информацией у будущих педагогов. Особое внимание уделяется использованию цифровых технологий, развитию медиаграмотности, аналитического и критического мышления в образовательном процессе. Также анализируются инновационные методы, применяемые в образовательных системах развитых стран, и возможности их внедрения в национальную систему педагогического образования. В результате исследования предлагаются эффективные механизмы повышения информационной компетентности будущих педагогов.

Abstract: This article examines advanced foreign experiences in developing information-handling skills among future teachers. Particular attention is paid to the use of digital technologies, media literacy, analytical abilities, and critical thinking in the educational process. The study also analyzes innovative methods applied in the educational systems of developed countries and the possibilities of integrating them into the national pedagogical education system. As a result, effective mechanisms for improving the information competence of future educators are proposed.

Jahon ta’lim maydonida yuz berayotgan shiddatli integratsion jarayonlar hamda pedagogik paradigmalarning raqamli reallikka moslashuvi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida ilg‘or xorijiy tajribalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Qiyosiy pedagogika metodologiyasiga tayangan holda xorijiy amaliyotni o‘rganish shunchaki boshqa davlatlar modelini ko‘r-ko‘rona ko‘chirishni emas, balki milliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, eng samarali didaktik yechimlarni adaptatsiya qilishni nazarda tutadi. Rossiyalik taniqli olim B.L. Vulfson qiyosiy pedagogikaning gnoseologik ahamiyatini o‘rganar ekan, xalqaro ta’lim tajribasini tizimli o‘rganish orqali nafaqat mavjud muammolarning universal yechimlarini topish, balki milliy ta’lim taraqqiyotining strategik prognozlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratilishini ilmiy asoslab bergan [Вульфсон Б.Л. Сравнительная педагогика. Монография. – Москва: УРАО, 2003. – 256 с.]. Shu nuqtai nazardan, dunyoning yetakchi mamlakatlari bo’lgan Yevropa Ittifoqi davlatlari, Skandinaviya mintaqasi, AQSh, Janubiy Koreya oliy ta’lim amaliyotida bo‘lajak pedagoglarning axborot-tahliliy malakalarini shakllantirish mexanizmlari qanday qonuniyatlarga bo‘ysunishini o‘rganish mazkur dissertatsiya tadqiqotining poydevorini mustahkamlaydi.

Xalqaro darajada axborot va media savodxonlik muammosiga eng yirik institutsional yondashuv Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKO tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. YUNESKO ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va jahonning

ko‘plab davlatlari oliy ta’lim tizimi uchun baza vazifasini o‘taydigan “O‘qituvchilar uchun media va axborot savodxonligi bo‘yicha o‘quv dasturi” (Media and Information Literacy Curriculum for Teachers) axborot kompetensiyasini shakllantirishning fundamental modelini o‘zida aks ettiradi. Mazkur dasturning konseptual o‘zagi shundan iboratki, u pedagoglardan faqatgina texnologik vositalardan foydalana olishni emas, balki global axborot makonida tanqidiy tafakkur hamda fuqarolik mas’uliyatini namoyon etishni talab qiladi [UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p.]. Dastur doirasida bo‘lajak o‘qituvchilar axborotni izlash va tahlil qilish jarayonini uchta o‘zaro bog‘liq bosqichda o‘zlashtiradilar: birinchisi – axborotga bo‘lgan ehtiyojni anglash va ochiq resurslardan foydalanish; ikkinchisi – mediamatnlarni dekonstruksiya qilish ya’ni, ma’lumot ortidagi manipulyativ maqsadlar va stereotiplarni fosh etish; uchinchisi – pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan shaxsiy raqamli kontent yaratish. Ushbu xalqaro andoza bo‘lajak pedagoglarning bilish faoliyatida refleksiv komponentni kuchaytirishga va “axborot iste’molchisi” pozitsiyasidan “axborot saralovchisi va eksperti” darajasiga ko‘tarilishiga qaratilgani bilan g‘oyat ahamiyatlidir.

Yevropa Ittifoqi makonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi, xususan, ularning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini diagnostika qilish va rivojlantirish amaliyoti C. Redecker muallifligida ishlab chiqilgan “Ta’lim beruvchilarning raqamli kompetensiyalari bo‘yicha Yevropa tizimi” (DigCompEdu – European Framework for the Digital Competence of Educators) doirasida mukammal tartibga solingan. DigCompEdu modeli o‘qituvchilarning axborot muhitidagi faoliyatini 6 ta nufuzli soha va 22 ta sub-kompetensiyaga ajratib o‘rganadi. E’tiborli jihati shundaki, ushbu modelning aynan “Raqamli resurslar” deb nomlangan sohasi pedagoglardan o‘quv ma’lumotlarini shunchaki topishni emas, balki ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga, inklyuziv ehtiyojlariga hamda didaktik maqsadlarga mos ravishda qat’iy filtrlashni, ma’lumotlarning ishonchliligini baholashni qat’iy belgilab beradi [Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Report. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.]. Yevropa tajribasida axborot kompetensiyasini baholashda taksonomik yondashuv A1 – Yangi o‘rganuvchidan tortib, C2 – Kognitiv lidergacha bo‘lgan 6 ta daraja qo‘llanilishi, har bir talabaning shaxsiy taraqqiyot trayektoriyasini xolis monitoring qilish imkonini beradi. Ushbu tizimli yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot ergonomikasi va ma’lumotlarni litsenziyalash Creative Commons kabi mualliflik huquqi doirasida ishlash madaniyatini shakllantirishda ulkan amaliy qimmatga ega bo‘lib, uni milliy oliy ta’lim muassasalarimizning o‘quv-metodik ta’minotiga qisman transformatsiya qilish yuqori didaktik samara berishi shubhasizdir.

Olimlarning fikricha, g‘arb ta’lim modelida axborot kompetensiyasi individual kognitiv qobiliyat doirasidan chiqib, ijtimoiy-pedagogik qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Kanadalik mashhur masofaviy ta’lim nazariyotchisi A.W. Bates o‘zining “Raqamli asrda o‘qitish” (Teaching in a Digital Age) nomli fundamental asarida ta’kidlaganidek, hozirgi kunda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy “ustoz-shogird” munosabatlari raqamli epoxada o‘z shaklini o‘zgartirmoqda. Endilikda bilimning yagona manbai o‘qituvchi emasligi obektiv haqiqatga aylangan, bunday sharoitda o‘qituvchining asosiy kasbiy funksiyasi cheksiz axborot tarmog‘ida talabalarga “kognitiv kompas” vazifasini o‘tashdan iboratdir [Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning. Monograph. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2015. – 515 p.]. Buning uchun pedagogning o‘zi avvalo noprofessional va yolg‘on axborotlarni chetlab o‘tish malakasiga hamda raqamli gigiyenaga ega bo‘lishi shart. Yuqorida tahlil qilingan xalqaro dasturlar va konseptual g‘oyalar shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or xorijiy tajribalarda bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish shunchaki informatikaga oid modullarni o‘tish bilangina cheklanmaydi, balki mazkur layoqat gumanitar, ijtimoiy va ixtisoslik fanlarining barchasiga “cross-curricular” yondashuv asosida singdirib yuborilgan yaxlit uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Jahon ta’lim tizimida axborot kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha e’tirof etilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalarni chuqurroq tahlil qilar ekanmiz, Shimoliy Amerika, Yevropa hamda Osiyo mamlakatlarining o‘ziga xos didaktik strategiyalarini farqlash mumkin. Xususan, AQSh ta’lim tizimida axborot savodxonligi masalasi uzoq yillik evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, bugungi kunda u oliy ta’limning uzviy kognitiv o‘zagi hisoblanadi. Amerika Kollej va Ilmiy Kutubxonalar Assotsiatsiyasi (ACRL) tomonidan ishlab chiqilgan va ta’lim muassasalarida keng joriy etilgan “Oliy ta’lim uchun axborot savodxonligi asoslari»” konsepsiyasi axborotga an’anaviy mexanik yondashuvdan mutlaqo voz kechib, uni murakkab ijtimoiy-madaniy ekotizim sifatida talqin qiladi [Association of College and Research Libraries. Framework for Information Literacy for Higher Education. Official document. – Chicago: ALA, 2015. – 35 p.]. Mazkur konsepsiyaning o‘ziga xosligi shundaki, unda oltita tayanch gnoseologik qolip belgilangan: axborotni yaratish jarayon sifatidagi qadriyati, tadqiqotning uzluksiz izlanish ekanligi, axborotning strategik izlanishi, hamda olimlar o‘rtasidagi ilmiy muloqotning mohiyati kabilar. AQSh universitetlarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda aynan ushbu qoliplar asosida talabalarga ma’lumotlarning ijtimoiy-iqtisodiy yashirin motivlarini fahmlash, mualliflik huquqi va intellektual mulkning qadr-qimmatini anglash layoqati evristik munozaralar orqali shakllantiriladi.

Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) reytinglarida barqaror ravishda yetakchi o‘rinlarni band etib kelayotgan Finlyandiya ta’lim tizimidagi tajriba ham bizning tadqiqotimiz uchun g‘oyatda ahamiyatlidir. Finlyandiya pedagogik ta’limida “hodisalarga asoslangan o‘qitish” (Phenomenon-based learning) strategiyasi va “ko‘p o‘lchovli savodxonlik” tushunchalari ustuvorlik qiladi. Taniqli fin pedagogi va ta’lim islohotchisi P. Sahlberg o‘zining fundamental asarlarida qayd etishicha, fin mo‘jizasining siri – o‘qituvchilarning yuksak darajadagi akademik avtonomiyasiga hamda ularning o‘quv jarayonini tadqiqotchilik prinsiplari asosida mustaqil loyihalay olishidadir [Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Monograph. – New York: Teachers College Press, 2015. – 237 p.]. Bu tizimda bo‘lajak o‘qituvchilardan alohida axborot texnologiyalari fanini o‘zlashtirishgina emas, balki real ijtimoiy va tabiat hodisalarini turli fanlar kesimida tahlil qilish asnosida o‘quv axborotlarini erkin saralash talab qilinadi. Talabalar axborot xurujlari, iqlim o‘zgarishlari kabi global hodisalarni tahlil qilish orqali o‘zlarida tanqidiy persepsiya va ma’lumotlarni interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini avtomatlashtirib boradilar. Bu jarayon axborotni shunchaki topish emas, balki “axborot orqali dunyoni o‘qish” degan yuksak gnoseologik maqsadda amalga oshiriladi.

Osiyo qit’asida raqamli innovatsiyalar markazi hisoblangan Janubiy Koreya Respublikasi tajribasi esa o‘zining yuqori texnologik qamrovi va axborot ekologiyasiga qaratilgan keskin e’tibori bilan ajralib turadi. Koreya milliy ta’lim tizimida “Aqlli ta’lim” SMART education: Self-directed, Motivated, Adaptive, Resource-enriched, Technology-embedded tamoyiliga o‘tilganligi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik profilini tubdan o‘zgartirib yubordi. Xorijiy davlatlar ta’lim tajribalarini qiyosiy tadqiq etgan rus olimi A.N. Djurinskiyning yozishicha, Osiyo o‘lkalarida, jumladan Janubiy Koreyada pedagogik ta’lim nafaqat yuqori texnologik jihozlanish, balki kognitiv moslashuvchanlikni tarbiyalash orqali mutaxassisni doimiy noaniqlik va yangilanishlar sharoitiga psixologik jihatdan tayyorlashga qaratilgan [Джуринский А.Н. Сравнительная педагогика. Учебник для магистров. – Москва: Юрайт, 2014. – 440 с.]. Koreya Ta’lim va tadqiqot axborot xizmati bo’lgan KERIS tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar doirasida pedagogika universitetlarining talabalari majburiy tartibda axborot etikasi, kiberxavfsizlik va bulutli texnologiyalarda didaktik kontent yaratish amaliyotlaridan o‘tadilar. Bu yondashuv o‘qituvchining axborot makonidagi mas’uliyatini huquqiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan turli xalqaro yondashuvlar bir umumiy mantiqiy nuqtada kesishadi: xoh u Amerikaning erkin qidiruv freymlari, xoh Finlyandiyaning hodisaviy yaxlitligi yoki

Koreyaning SMART interaktivligi bo‘lsin – barchasida axborot bilan ishlash kompetensiyasi bo‘lajak o‘qituvchining tayanch intellektual quroli sifatida baholanmoqda. Bu xorijiy modellarning didaktik yadrosini asosan o‘z-o‘zini rivojlantirish va ma’lumotni amaliy pedagogik vaziyatlarga moslashtira olish qobiliyati tashkil etadi. Bizning mahalliy ta’lim sharoitimizda ham mazkur davlatlarning tajribalarini xususan, ACRL freymlarini va SMART ta’lim elementlarini) ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmasdan, balki milliy mentalitet, o‘zbek gnoseologik an’analari va mavjud infratuzilma xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy transformatsiya qilish orqali yuqori sifatli didaktik samaraga erishish mumkinligi namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro ta’lim makonida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan hamda yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlarini qayd etgan xorijiy modellarni milliy oliy ta’lim tizimimizga tatbiq etish mexanik ko‘chirish tarzida emas, balki “glokalizatsiya” -global ilg‘or tendensiyalar va lokal milliy xususiyatlar sintezi tamoyiliga qat’iy rioya qilingan holda amalga oshirilishi metodologik obektiv zaruratdir. Pedagogika nazariyasida xorijiy tajribalarni adaptatsiya qilish borasida izlanishlar olib borgan mahalliy olimlardan O.A. Qo‘ysinovning ta’kidlashicha, har qanday innovatsion texnologiya yoki didaktik yondashuv avvalo jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, ta’lim oluvchilarning mental xususiyatlari hamda mavjud moddiy-texnik bazaning real imkoniyatlari elagidan o‘tkazilgandagina kutilgan pedagogik natijani beradi [Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий-методик асослари. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – 164 б.]. Ushbu qoidaga asoslanib, AQShning kognitiv qidiruv freymlari, Finlyandiyaning hodisaviy yaxlitlikka asoslangan tahlili hamda Janubiy Koreyaning SMART interaktivligi kabi ilg‘or tajribalarni mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga maqsadli yo‘naltirish – bo‘lajak o‘qituvchilarning ixtisoslik fanlarini o‘zlashtirishdagi mustaqil izlanuvchanligini hamda mediasavodxonligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida axborot asimmetriyasini bartaraf etish va milliy axborot xavfsizligini ta’minlashdek strategik maqsadlar ustuvor etib belgilanadi.

Ilg‘or xorijiy tajribalarning didaktik elementlarini mahalliy amaliyotga singdirish asnosida gibrid yondashuvlardan, aniqrog‘i “Aralash ta’lim” (Blended Learning) hamda “To‘ntarilgan sinf” (Flipped Classroom) texnologiyalaridan ixtisoslashtirilgan tartibda foydalanish yuqori samara beradi. Kanadalik olimlar D.R. Garrison hamda N.D. Vaughan o‘zlarining aralash ta’lim tizimini loyihalashga doir fundamental tadqiqotlarida uqtirib o‘tganlaridek, auditoriya va virtual ta’lim muhitlarining organik integratsiyasi talabada bilimlarni shunchaki yodlash emas, balki ularni mustaqil konstruksiyalash va tanqidiy qayta ishlash uchun optimal kognitiv maydon yaratadi [Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Monograph. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 272 p.]. Mazkur texnologiyalarni bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga moslashtiradigan bo‘lsak, an’anaviy leksiya materiallari talabalarga darsdan oldin raqamli formatda taqdim etiladi. Talaba uy sharoitida yoki mustaqil ta’lim soatlarida axborotni o‘qiydi, qo‘shimcha ma’lumotlarni xorijiy ochiq elektron resurslardan qidiradi, ma’lumotlarni saralab, ularning obektivligini tekshiradi. Auditoriya mashg‘ulotida esa professor-o‘qituvchi tayyor ma’lumot beruvchi diktor emas, balki bahs-munozarani boshqaruvchi, ziddiyatli axborotlarni tahlil qilish bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltiruvchi fasilitator rolini bajaradi. Bu jarayon axborotni passiv qabul qilish ssenariysini butunlay parchab, talabani o‘quv jarayonining faol kognitiv arxitektoriga aylantiradi.

Shunday qilib, birinchi bob doirasida o‘tkazilgan falsafiy-gnoseologik, psixologik-pedagogik hamda qiyosiy xalqaro tahlillar qator mantiqiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasi – zamonaviy raqamli didaktika sharoitida eng muhim tayanch layoqat bo‘lib, u shaxsning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun gnoseologik poydevor vazifasini o‘taydi. Ikkinchidan, oliy ta’lim amaliyotida yuzaga kelayotgan “kognitiv yuklanish”, “klip tafakkur” hamda plagiat kabi illatlar an’anaviy ta’lim metodlari axborot jamiyati

talablariga to‘liq javob bera olmayotganidan dalolat beradi. Uchinchidan, jahonning yetakchi ta’lim modellarida pedagogik axborot qidiruvi, tahlili va sintezi murakkab intellektual etika va tanqidiy persepsiya qoidalari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, ushbu jihatlarni milliy ta’lim muassasalarimiz o‘quv-tarbiya jarayoniga didaktik modellashtirish asosida joriy etish kechiktirib bo‘lmas vazifadir. Olib borilgan ushbu nazariy izlanishlar va ilgari surilgan metodologik qoidalar tadqiqotning keyingi bosqichida bevosita bo‘lajak o‘qituvchilarda axborot kompetentliligini rivojlantirishning konseptual-strukturaviy modelini hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan maxsus metodik ta’minotini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p
2. Вульфсон Б.Л. Сравнительная педагогика. Монография. – Москва: УРАО, 2003. – 256 с
3. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Monograph. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 272 p
4. Қўйсинов О.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий-методик асослари. Монография. – Тошкент: Фан, 2008. – 164 б
5. Джуринский А.Н. Сравнительная педагогика. Учебник для магистров. – Москва: Юрайт, 2014. – 440 с
6. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning. Monograph. – Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2015. – 515 p.